

BOSHLANG'ICH SINFLARDA DIDAKTIK ADABIY ASARLARDAN FOYDALANISH – ESTETIK TARBIYA VOSITASI

Shodiyeva Mehribon

BuxDPI 2-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: D.B.Axmedova

BuxDU doktoranti (DSc), f.fff.d. (PhD)

Annotatsiya: Maqolada 4-sinf “Tarbiya” fani darsligidagi “Fazilatlar – inson ko‘rki” mavzusini didaktik adabiy asarlar bilan bog‘lab integratsiya asosida o‘rgatish bo‘yicha fikr-mulohazalar bildirilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmoniga 1-ilova, estetik dunyoqarash, “Sher bilan durroj” masali, qanoat, “Qutadg‘u bilig”, “Guliston”, Milliy o‘quv dasturi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmoniga 1-ilovada ijodkor va iqtidorli o‘quvchilarini qo‘llab-quvvatlash tizimini joriy etish, o‘quvchilar o‘rtasida kitobxonlikni yanada ommalashtirish kabi masalalar ilgari surilgan. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobga mehr uyg‘otish, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan didaktik asarlarni tavsiya qilish va o‘qilgan asarlar yuzasidan kerakli xulosalarni chiqarish maqsadida bahs-munozaralar o‘tkazish ta’limning sifat va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Didaktik ruhdagi adabiy asarlar mazmunini ta’lim-tarbiya, pand-nasihat, ezgu fazilatlar uyg‘unligi tashkil etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dunyoqarashini boyitishda, bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishda didaktik adabiy asarlardan olingan parchalar katta yordam beradi. Zero, Milliy o‘quv dasturining asosiy maqsadi ham o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish, mustaqil hamda ijodiy ishslash ko‘nikmalarini yanada rivojlantirishdir. Shu sababli el e’zozidagi va xalq e’tiboridagi shaxslarni namuna qilib ko‘rsatish, ularning ma’naviy merosini yosh avlod qalbiga singdirish o‘quvchilarning estetik dunyoqarashini boyitishda, tarbiya samaradorligini oshirishda muhim g‘oyaviy asosdir. Zero, Mirzakalon Ismoiliy to‘g‘ri ta’kidlaganidek,

- go‘zallik – bu kishining qalbi go‘zalligi;
- go‘zallik – bu kishining istarasi issiqligi;
- go‘zallik – bu kishining go‘zal xulq egasi bo‘lishi;

• go‘zallik – bu bamisoli daraxt, yaprog‘i – axloq, ildizi – ichki dunyo, mevasi – yaxshi fazilat. Xullas, odam bolasidagi go‘zallik – tabiat ato qilgan husn-jamolidan tashqari, yana eng yaxshi xulq-atvorni, insondagi eng yaxshi fazilatlarni o‘z ichiga olgan odamiylikdan iborat.

Biz boshlang‘ich sinflarda dars jarayonini mavzularga mos ravishda didaktik asarlar bilan uyg‘unlashtirib tashkil qilishimiz mumkin. Jumladan, 4-sinf “Tarbiya” fani darsligining 59-sahifasidagi 19-mavzu “Fazilatlar – inson ko‘rki” deb nomlangan bo‘lib, birgina shu mavzu orqali o‘quvchilarning estetik dunyoqarashini boyituvchi ko‘pgina

tushunchalarni yoritib berishimiz mumkin. Avvalo, mavzuda berilgan donishmand Suqrot bilan bog‘liq hikoyaga e’tibor qiladigan bo‘lsak, uning “xabarchi”ga bergan oqilonan javobini ko‘rishimiz mumkin, ya’ni bir gapni aytishdan avval uni “3 g‘alvir” imtihonidan o‘tkazish kerak: haqiqat – yaxshilik – xushxabar. Bundan tashqari mavzu mazmunini ochib berishda sabr, qanoat, intilish, mehnatsevarlik, mehribonlik, mas’uliyatlilik, sadoqat, xayriyohlik, mardlik, halollik, odob kabi tushunchalar berilgan. Ularni hayotiy misollar, badiiy parchalar, hikmatlardan foydalangan holda tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Al-Buxoriy hazratlarining hadislarida shunday fikrlar beriladi: “Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangiz”. “Hech bir ota o‘z farzandiga xulq-u odobdan buyukroq meros berolmaydi”. Darhaqiqat, ta’lim-tarbiya, insoniy munosabatlarning falsafiy asoslarini islom olamining muqaddas kitobi Qur’oni Karim oyatlari, Hadisi Sharif manbalari tashkil etadi. Qur’oni Karimda ham quyidagi beshta tamoyil komillikka erishish uchun talab etiladi:

1. Mehnatim – muhabbatim.

2. Ma’rifatim – sarmoyam.

3. Dinim – aqlim.

4. Ilmim – qurolim.

5. Sabr-u qanoat – libosim.

Navoiyning “Sher bilan durroj” masalida yolg‘onchilikning kasofati, rostgo‘y bo‘lishning fazilatli ekani yoritib berilgan. Yana bir didaktik adabiyotimiz durdonasi bo‘lmish Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida ham sabr-qanoatga oid qator ibratli fikrlar berilganini ko‘rishimiz mumkin. Darslikda esa go‘zal fazilatlardan biri, ya’ni “qanoat” tushunchasini izohlashda Navoiyning quyidagi hikmati berilgan: “Kimki qanoatni o‘ziga kasb qilgan bo‘lsa, qanoat uni boy qiladi. Oltin, kumush bilan zeb-u ziynatlarni boylik deb bilma, balki haqiqiy boylik qanoat oltinlaridir. Qanoat oltini hech qachon yo‘qolmaydi. Ana shu oltinni qo‘lga kiritib, shu orqali boyishga harakat qil... Tama qilish gadolarning ishidur. Bilki, tama qilgan kishi gadodir”.

Demak, estetik tarbiya – bu nafosat tarbiyasi, odamiylik tarbiyasi hamda katta ahamiyatga ega bo‘lgan go‘zallik tarbiyasi. Bu esa bevosita didaktik adabiyotlardan foydalanish jarayonida hamda ulardagi ibratli fikr-mulohaza, g‘oyalarni boshlang‘ich sinf darsliklaridagi mavzular kesimiga mos holda yosh avlod ongiga singdirishga bog‘liq holda amalga oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Sermuxamedova va b. Tarbiya (4-sinf uchun darslik). Toshkent. 2020.
2. Q.Husanboyeva, M.Hazratqulov, Sh.Jamoldinova. Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi. Toshkent. 2020.
3. D.B.Axmedova, M.A.Shodiyeva. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim egallahsga doir qarashlarini shakllantirishda didaktik asarlarning o‘rni. Ilm-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida Respublika ilmiy-onlayn konferensiyasi. 2022.